



## TURK VA O'ZBEK TILLARIDA BOSH SOMALI METAFORALAR TAHLILI.

Jololova K.F

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Qiyosiy tilshunoslik lingvistik tarjima-shunoslik (turk tili) 2- kurs magistranti

Usmanova Sh.R

Ilmiy rahbar: F.f.d., prof.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola turk va o'zbek tillarida "ko'z" konsepti asosida shakllangan metaforalarning qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. "Ko'z" nafaqat inson tanasining a'zosi, balki ko'rish, bilish, sezish, his qilish va anglash kabi ko'plab abstrakt tushunchalarni ifodalovchi konsept sifatida til va tafakkurda muhim o'rin tutadi. Maqolada ushbu konsept asosida yaratilgan metaforalar semantik, kontekstual va madaniy jihatdan tahlil qilinadi. O'zaro yaqin bo'lgan ikki til – turk va o'zbek tillaridagi umumiyliklar va farqlar aniqlanib, til orqali ifodalangan konseptual tafakkur tizimi yoritib beriladi. Bu ikki tilde ko'z bilan bog'liq metaforalar shaklan ikkiga ajratildi. 1. Shaklan bir xil va ma'no bir xil. 2. Shaklan turlicha ma'no bir xil. 3. Shaklan bir xil ma'no turli xil.

**Kalit so'z:** Metafora, konseptual tahlil, ko'z konsepti, turk tili, o'zbek tili, madaniy tafovut, semantika, til va tafakkur

### KIRISH

Til – bu inson tafakkurining, dunyoqarashining va madaniy qadriyatlarining eng muhim ko'zgidir. Ayniqsa, metaforalar orqali til nafaqat muloqot vositasi, balki ongning konseptual tuzilmasini ifoda etuvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. Har bir til va madaniyat o'ziga xos metaforik ifodalar tizimiga ega bo'lib, ular orqali insonning atrof-muhitga, jamiyatga, hissiyotlarga va tanaga bo'lgan munosabati aks etadi. Ushbu maqolada turk va o'zbek tillarida "ko'z" konsepti asosida shakllangan metaforalar tahlil qilinadi va ular orasidagi o'xshashlik hamda farqlar ochib beriladi.

"Metafora- biror narsa yoki harakatni tushuntirish maqsadida ma'lum bir boshqa obyekt xususiyatidan foydalanadigan adabiy tushuncha" deb ta'riflaydi Jhon Stephen.<sup>30</sup>

Metaforalar tilni boyitadi, fikrlarni yanada tushunarli va ta'sirchan qiladi. Ular mantiqiy aloqalar o'rnatish orqali murakkab tushunchalarni soddalashtirib ifoda etish imkonini beradi. Shuningdek, metaforalar madaniyat va ijtimoiy kontekstni ham aks ettiradi, chunki ular jamiyatning dunyoqarashini, qadriyatlarini va tajribalarini ifoda etadi.

Metafora [yun. metaphora – ko'chirish, ko'chim] ad. so'z yoki iborani o'xshashlik yoki o'xshatishga asoslangan ko'chma ma'noda ishlatish va shunday ma'noda ishlatilgan so'z yoki ibora.<sup>31</sup>

Metafora haqida gapirganda ingliz tilshunoslari Jeorj Lakoff va Mark Jonson tarafidan olib borilgan izlanishlarni ta'kidlab o'tish jozi. Ularning "Metaphor we live by" kitobida metaforalarni faqat adabiy janrning yoki san'atning qismi emas balkim kundalik

<sup>30</sup> Nilufarxon Sobirova, Zeboxon Nazirova O'ZBEK TILIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), April, 2023 y. –B. 961

<sup>31</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. - Toshkent.: G'G'ulom, 2023. B-178.



hayotimizda qo'llaniladigan til vositasi sifatida tahlil qilganlar. “ Metafora faqat so'zlarni ifodalash vositasi emas balkim insonlarning dunyoqarashi tushunchalari va hissiyotlari bilan bog'liq. Ularning asosiy g'oyasi shundan iboratki, ko'plab abstrakt tushunchalar masalan vaqt his tuyg'ular konkret narsalar va faoliyatlar orqali “ xaritalanadi” yoki “tanlanadi” , bu esa metafora orqali namoyon bo'ladi<sup>32</sup>.

Ko'z inson tanasining muhim a'zosi bo'lishi bilan birga, ko'plab madaniyatlarda idrok, his-tuyg'u va ichki dunyoning ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu bois ko'z konseptiga asoslangan metaforalar tilimizda keng tarqalgan bo'lib, ularni tahlil qilish orqali har ikki til foydalanuvchilarining dunyoqarashi va tafakkur shakllanishiga doir qimmatli xulosalar chiqarish mumkin. O'zbek va Turk tillari tarixiy jihatdan yaqin bo'lishiga qaramay, ularning metaforik tizimida ayrim farqlarning mavjudligi til va madaniyatlararo tahlil uchun muhim manba hisoblanadi. Bu ikki tildagi metaforalarda o'zaro o'xshash va farqli tomonlarining borligi har ikki til egalarining yashash tarzi, dunyoqarashi, istiqomat hududi turlicha ekanligi bilan izohlanadi.

Maqolaning maqsadi – “ko'z” konsepti asosida shakllangan metaforalarni tahlil qilish, ularning semantik, kontekstual va madaniy jihatlarini qiyosiy o'rganish orqali umumiylik va o'ziga xosliklarni aniqlashdan iborat.

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek va turk tillarida inson tana a'zolari asosida shakllangan metaforik birliklarning keng uchrashi, bu tillar egalari tomonidan olamni idrok etish va ifodalash jarayonida tanaga oid konseptlarga tayanuvchanlik kuchli ekanini ko'rsatadi. Inson qadimdan o'z ichki kechinmalari, hissiyotlari va fikr-mulohazalarini atrofdagilarga yetkazishga intilib kelgan. Ushbu jarayonda til asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan, tana a'zolari esa inson ongi va tafakkurida chuqur ildiz otgan konseptlar sifatida metaforik ifodalarning asosiga aylangan. Ayniqsa “bosh“, “ko'z“, “yurak“, “til“, “quloq“, “qo'l“ kabi a'zolar bilan bog'liq metaforalar nafaqat til, balki madaniyat, qadriyat va dunyoqarashning ham ifodasidir. Bu turdagi metaforalar orqali til foydalanuvchilari abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali ifodalaydi, natijada tilning semantik imkoniyatlari kengayadi va madaniy kodlar shakllanadi.

Ko'z – faqat ko'rish vositasi emas, balki aql va ruhiyatning oynasi hamdir.

Turkiy tillarda “ko'z” so'zi ko'p hollarda nafaqat jismoniy ko'rish bilan, balki ichki sezgi, aql-idrok va niyat bilan bog'liq ma'no yuklaydi. Masalan, o'zbek tilida “ochiq ko'z” degan ifoda, har bir narsaga diqqat bilan qaraydigan, voqealarning eng kichik tafsilotlarini ham ilg'ay oladigan insonni anglatadi. Bu yerda “

.ko'z” – kuzatuvchanlik va tafakkur belgisi sifatida ishlatiladi.

Adib Abdulla Qodiriy “O'tgan kunlar” asarida shunday yozadi: “O'zining ochiq ko'zi, o'tkir zehni orqali bunday o'zboshimchalik orqasidan mudhish falokatli manzaralar ko'rar edi.” Yoki “Kecha va kunduzni barcha ko'zi ochiq odamlar farq laydi. “Saodat”. Bu jummalarda “ochiq ko'z” ifodasi nafaqat jismoniy ko'rish, balki ziyraklik, aql bilan kuzatish, ichki sezgi kuchi kabi tushunchalarni ham qamrab olgan. Turk tilida ham bu ifodaning ekvivalenti mavjud: “açıkgöz”. Bu so'z ko'proq har bir tafsilotga e'tibor qaratadigan,

<sup>32</sup> George Lakoff. Mark Johnsen Metaphors We Live By. – Chicago.: University of Chicago Press, 1980.193p.



hodisalarni teran tahlil qiladigan, atrofidagi voqealarga befarq bo'lmagan odamni tasvirlashda ishlatiladi. "Açıkgöz" kishilar, odatda, yuqori darajadagi sezuvchanlik va ongli kuzatish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, o'zbek tilida "ko'z" so'zining jismoniy a'zo bo'lishi bilan bir qatorda, turli metaforik birikmalarda ishlatilishi ham keng tarqalgan. Bu holatda "ko'z" odatda biror narsaning markazi, manbai yoki asosiy nuqtasi ma'nolarini bildiradi. Masalan: "Ishning ko'zi" – bu ibora ishning eng muhim, hal qiluvchi jihatini anglatadi: Ishning ko'zini bil, Erning — tilini (maqol) (Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik haqida maqollar)

"Ishning ko'zi" metaforasi o'zbek tilida biror ishning eng muhim, hal qiluvchi nuqtasi, uning mohiyatini anglash degan ma'noni bildiradi. Bu ibora o'zbek xalq maqollarida ham keng qo'llanadi. Masalan, "Ishning ko'zini bil, erning — tilini" degan maqolda insondan har qanday ishda eng muhim jihatni tushunish, uni oqilona va samarali bajarish talab qilinadi.

Turk tilida esa "işin gözü" kabi to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent metafora mavjud emas. Bu sababli o'zbek tilidagi bu ifodani turk tiliga tarjima qilishda "ne yapacağını bilen" (nima qilishni biladigan), "becerikli" (epchil, usta) yoki "işin püf noktasını bilen" (ishning eng muhim nuqtasini biladigan) kabi ifodalar bilan berish mumkin. Bunda metaforik mazmun saqlanmasa-da, semantik ma'no asosan saqlab qolinadi.

"Tanqid ko'zi" metaforasi o'zbek tilida tanqidning nuqtai nazarini, ya'ni tanqidni olib borishdagi yondashuvni yoki tanqidning asosiy jihatini anglatadi. Bu ibora, ko'zning ma'naviy yoki ramziy ma'nosi orqali, biror narsaning yuksalishi yoki pasayishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan tanqidiy qarashni ifodalaydi.

Turk tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent mavjud emas, ammo bu iborani "eleştirel bakış", "eleştirel gözle bakmak", "eleştirel göz" sifatida turk tilida qo'llanilishi mumkin.

Turkiy xalqlar adabiyoti va og'zaki ijodida ko'zga oid metaforalar juda keng tarqalgan. Xususan, ko'zning go'zalligini ifodalashda o'simliklar olami obrazlaridan foydalanish poetik an'anaga aylangan. Masalan, turk tilida "menekşe göz" (binafsha ko'z) iborasi ko'zning go'zalligini, yumshoqligi va jozibasini ifodalashda ishlatiladi. Ahmet Selçuk İlkanning "Menekşe gözlerinde beni gömsen diyorum" misrasida sevgilining ko'zlari go'yo binafsha gullariga qiyos qilinadi. Bu ibora orqali noziklik, nafislik, sokin sevgi his-tuyg'ulari tasvirlanadi.

Xuddi shunga o'xshash tarzda, o'zbek adabiyotida "nargis ko'z" obraziga duch kelamiz. Nargis — bu bahor guli bo'lib, uning go'zalligi, nafis rangi va jozibasi uni ko'z timsoli sifatida ishlatishga asos bo'lgan. "Termilmasin nargis ko'zim" degan misra "Bahrom va Gulandom" dostonida uchraydi. Bu yerda "nargis ko'z" insoniy go'zallik va estetik tuyg'ularning timsoliga aylangan. Har ikki metafora – "menekşe göz" va "nargis ko'z" – har xil o'simliklarga asoslangan bo'lsa-da, poetik mazmunda bir-biriga yaqin: ikkalasi ham ko'zning go'zalligini, ma'sumligini va sehrlil ta'sir kuchini ifodalaydi.

Ko'zga oid metaforalar turkiy tillarda nihoyatda boy va xilma-xildir. O'zbek tilida ko'zning go'zalligi xumor ko'z, munchoq ko'z, jodu ko'z, ohu ko'z, kiyik ko'z, mastona ko'z kabi ifodalar orqali beriladi. Bular orasida "xumor ko'z" ma'sumlik, sokin g'am va sevgi iztirobini, "munchoq ko'z" esa marvariddek jozibador va porloq nigohni bildiradi. Shuningdek, "ohu ko'z" va "kiyik ko'z" iboralari orqali nigohning jozibasi bilan birga, unga



xos noziklik va uyatchanlik, sof tuyg'ular ham ifodalanadi. Bunga adabiy misollar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

"Kiygani gulgun qirmizi, Aqlim olar jodu ko'zi." ("Murodxon")

"Kel ey, bu kun ko'zi xumor, Ko'rgoni keldim sog'inib. (IS'HOQXON IBRAT)

Turk tilida esa ko'zning tuyg'uli va estetik ifodasi boshqa metaforalarda o'z aksini topadi: mhrl gzler (kata va qora ko'z ), boncuk gzler (munchoqqa o'xshash, chaq nab turuvchi ko'zlar), kursun gzler (jalb qiluvchi, chiroyli), masal gzler (ertakdagi sngari chiroyli ko'zlar), bayku gzler (keskin, kuzatuvchan boyo'g'li ko'zlar) kabilar bunga misoldir. Bu birikmalarda ham ko'zning jozibasi, ta'siri va estetik qmmati har xil konnotatsiyalar orqali yoritiladi.

Xususan, turk tilidagi "boncuk gzler" birikmasi bilan o'zbek tilidagi "munchoq ko'z" frazeologizmi semantik jihatdan yuqori darajada yaqinlik kasb etadi. Har ikki birlik ham metaforik ifoda vositasi bo'lib, inson ko'zining tashqi qiyofasidagi jozibadorlik, nazokat va nozik estetik jihatlarni tasvirlashga qaratilgan. Ularning semantik maydoni insonning tashqi go'zalligi, ayniqsa ko'zning jozibasi bilan bog'liq bo'lib, ushbu birliklar orasida semantik izomorfizm mavjudligi kuzatiladi.

Boshqa tomondan, "kursun gzler" (turkcha) va "jodu ko'z" (o'zbekcha) birikmalari o'rtasida qisman semantik o'xshashlik mavjud bo'lsa-da, ular tasvirlayotgan obrazlar orasida semantik tafovut ham kuzatiladi. Har ikki birlik ham ko'zning ta'sirchanligi, nigohning kuchi va inson ruhiyatiga o'tadigan sirli ma'nolar bilan bog'liq bo'lsa-da, ularning semantik komponentlari farq qiladi. Jumladan, "kursun gzler" birikmasida nigohning sovuq, salbiy, hatto begonalik yoki tahdid ifodalovchi konnotativ ma'nosi ustuvor bo'lib, metaforik asos ko'zning rang yoki sovuqlik hissi bilan bog'lanadi. Aksincha, "jodu ko'z" iborasida esa, ko'zning maftunkor, sehrliligi va ta'sirchan xususiyatlari, inson qalbini o'ziga rom etuvchi affektiv kuchi ilgari suriladi. Bu birlikda pozitiv konnotatsiya yaqqol namoyon bo'ladi.

#### 5.5.8 Xulosa

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, ko'z komponentli metaforalar Turk va O'zbek tillarining boy ma'naviy va madaniy merosida muhim o'rin egallagan. Ushbu metaforalar orqali insonning ichki kechinmalari, hissiyotlari, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari ramziy va obrazli tarzda ifodalanadi. Har ikki tilda ko'z metaforalarining o'xshashliklari til va madaniyatlararo umumiylikni, farqlari esa o'ziga xos milliy tafakkurni aks ettiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ko'z metaforalari inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi – aql-idrok, mehr-oqibat, diqqat-e'tibor, ehtiyotkorlik, shubha, va hatto baxt va g'amning ifodasida ham faol ishlatiladi. Shuningdek, ko'z komponentli metaforalar orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ifodalanib, ularning til va madaniyatdagi o'rni yanada mustahkamlanadi.

Kelgusida ushbu metaforalarni yanada chuqurroq o'rganish, ularning boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan qiyoslash, shuningdek, badiiy va og'zaki nutqdagi qo'llanilish xususiyatlarini tadqiq etish, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalariga yangi ilmiy yondashuvlar olib kirishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nilufarxon Sobirova, Zeboxon Nazirova O'ZBEK TILIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ,3(4), April, 2023 y. –B. 961
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. - Toshkent.: G'G'ulom ,2023.
3. Gearge Lakoff. Mark Johnsen Metaphors We Live By. – Chicago.: University of Chicago Press, 1980.193p.